

## TARIX DARSLARIDA "KAYZEN" PED TEKNOLOGIYASINI QO'LLANILISHI

**Meyliyeva Saodat Ismatovna**

*O'zb-n R-kasi IIV qarashli 2-sonli Toshkent Akademik litseyi tarix fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada tarix darslaridagi ped texnologiyalardan biri bo'lgan Kayzen ped texnologiyasini qo'llash va uni ahamiyati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Ta'lism, tarbiya, jarayon, tarix, kayzen, texnologiya, innovatsiya, ta'lism, rivojlanish.*

Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot o'quvchi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi, An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta sekin o'z o'rnini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish shakllariga bo'shatib bermoqda. Ta'lism - tarbiya jarayonida zamonaqiy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi.

Chunki uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi. Ta'lism-tarbiya jarayonining doimiy ravishda optimallashib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarning turli yo'naliш va maqsadlarda qullanilayotganligiga bog'liq.

Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchiox'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga xamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalarga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lism texnologiyasi o'qituvchi va uo'quvchi o'rtaida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida o'quvchi-o'quvchilar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil eta olsalar, o'zlar xulosa chiqara olsalar, o'zlariga, guruhga, guruh esa ularga baxo bera olsa, o'qituvchi esa ularning bunday faoliyatları uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, bizning fikrimizcha, ana shu o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi

Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor, ya'ni o'quv jarayonidagi pedagogik texnologiya - bu yakka tartibdagi jarayon bo'lib, u o'quvchi-o'quvchining extiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan. Oldindan loyixalashtirilgan va kafolatlangan natija berishiga qaratilgan pedagogik jarayondir. Shunday ekan har bir pedagog o'z darslarini o'tishdan oldin o'z oldiga maqsad qo'yib olmog'I lozim.

Zero bu kelajak avlod vatanimiz rivojiga hissa qo'shadigan barkamol bo'lib yetishmog'I lozim. Har bir fan o'qituvchisi oldidagi burch bu barkamol avlodni bilimliy qilb tarbiyalash darslarni mazmunli tashkil etish.

Tarix darslarida ham bunday pedagogik texnologiyalarning o'rni beqiyos. 45 daqiqada mavzuni har bir o'quvchidan so'rash imkoni yo'q, bunda biz turli metodlardan foydalanishimiz mumkin o'quvchini mavzuni qay darajada

tushunganliklarini biz bilib olishimiz mumkin. Buning uchun biz mavzuni, o'quvchini yoshini inobatga olib darsimizda bu pedagogik texnologiyani yoki metodlarni ta'nlashimiz mumkin.

Tarix darslarida o'quvchidan ko'proq tarixiy shaxslar nomlari ,sanalar, va tarixiy atamalarni yodda saqlash talab etiladi har bir mavzuda bularga alohida e'tibor berishimiz kerak.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnni egallashi jahoning turli rivojlangan mamlakatlari bilan siyosiy, ijtimoiyiqtisodiy ta'lism sohihasida o'zaro hamkorlikni o'rnatishi katta yutuqlarga olib keldi. Mustaqillikdan keyin o'tgan qisqa davr ichida ta'lism tizimida juda katta o'zgarishlar bo'ldi, olamshumul kashfiyotlar va yutuqlarga ega bo'ldik. Ma'lumki, fan va ta'lism doimo birlikda va o'zgarishda rivojlanadi.

Ta'lism tizimini yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rgangan holda zamonaviy metodlar va texnologiyalar asosida o'qitish masalalariga hukumatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor juda katta bo'lmoqda.

Innovatsion va pedagogik texnologiyalarning mamlakatimiz ta'lism sohasiga kirib kelishi - bu ta'limda tub burulish davri bo'ldi deb aysak mubolag'a bo'lmaydi.

Innovatsion texnologiya va metodlar bu o'quv jarayonida asosiy boshqaruvchi - o'qituvchi, boshqariluvchi - o'quvchi faoliyati birgalikda yo'naltiriladi va bu jarayonda o'qituvchidan ham o'quvchidan ham mustaqillik va ijodkorlik sifatlarini talab etadi. Hozirgi kunda ta'lism tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiya va metodlar o'quvchilarining yuksak bilim cho'qqilarini egallab, ularni fikrlashga, o'z shaxsiy va mustaqil qarashlarga ega bo'lishida katta ahamiyat kasb etmoqda.

Har bir o'qituvchi dars o'tishdan oldin darsda qo'llaydigan innovatsion pedagogik texnologiyalarning har bir elementigacha puxta o'rganishi va tadqiq qilishi lozim.

O'quvchilarga tarix darslarida ularning tarixiy bilimlariga bo'lgan tafakkur tushunchalarini o'stirishda yakka tushunchalarni umumlashtirib xulosalar chiqarishda zamonaviy ta'lism usullaridan keng va o'rinali foydalanish ularning tafakkurini shakllantirishda juda yaxshi samara beradi. Shulardan biri KAYZEN ped texnolgiyasi.

Kayzen Yaponchadan olingen bo'lib, "yaxshi tomonga o'zgarish" yoki "doimiy takomillashib borish" ma'nolarini anglatadi. Bu atama dastlab Yaponiya biznes falsafasida har bir ishchi va operatsiyani doimiy takomillashtirib borish jarayoni uchun ishlatalilgan. Hozirda Kayzen boshqa ko'plab sohalar, xususan, shaxsiy rivojlanishni tushuntirishda ham keng ishlataladi.

Hayot bu sprint emas, balki marafondir. Muvaffaqiyatli va katta o'zgarishlar huddi chaqaloqning kunlik qadam tashlashi kabi sekin-astalik bilan amalga oshiriladi. Kaizenga amal qilmaslik sizning maqsad yo'lingizdan toyib ketishingiz imkoniyatini oshirib yuboradi. Ba'zida taslim bo'lishingizga ham olib keladi. Buni quyida kengroq tushintiramiz. Ko'pchiligidan muvaffaqiyat yoki katta o'zgarishlar odatda ulkan tashabbus orqali vujudga keladi degan aldamchi faraz mavjud.

Aslida esa, katta muvaffaqiyatlar uzoq vaqt davomida izchillik bilan bosqichma-bosqich amalga oshirilgan harakatlar natijasi hisoblanadi. Kaizen bir kunda amalga

oshgan orzu singari o'ta hayajonli va yoqimli bo'lmasa ham, muvaffaqiyatga erishish jarayonining eng realistik ko'rinishidir. Bu yaponlarning barqaror va tunganmas muvaffaqiyatga erishish falsafasi hisoblanadi.

Kaizenni o'z hayotingizda qo'llash uchun, e'tiboringizni doim o'ylab yuradigan "birdaniga tubdan o'zgarish"dan doim amalga oshirsa bo'ladigan kichik o'zgarishlarga qaratishingiz zarur. Sizning kundalik kichik odatlaringiz sizni kundan-kunga o'sishingiz uchun xizmat qiladi.

Ko'p holatlarda biz to'g'ridan-to'g'ri butkul o'zgarishni istaymiz. Lekin harakterimizdagi o'zgarishlarni qisqa vaqt davomida, birdaniga amalga oshirish imkonsiz. Bu bizdan bosqichma-bosqich, izchil o'zgarishlarni talab qiladi. Misol uchun, bir kun hech narsa yemasdan to'liq parhez qilgandan ko'ra, har haftada sog'lik uchun zararli bitta mahsulotni kundalik ratsionimizdan chiqarib tashlaganimiz ancha qulay va samarali. Agar shunday qilsak, ikki yil ichida biz butunlay sog'lom va yangi ratsionga erishamiz. Bu deyarli o'zimiz sezmagan holatda amalga oshadi.

"Kayzen" ped texnologiyasi, talabalarga o'zining qiziqtirganliklari, deyarli talabalarning o'rgangan narsalarga qiziqishiga qarab, o'rganish dasturini shakllantirish imkonini beradi. Bu usulda, talabalarga o'ziga yoqqan rivojlanish yo'lida yordam beriladi va ularning o'z ishtiroklarini belgilash imkoniyati yaratiladi.

"Kayzen" ped texnologiyasi, talabalarga o'rganish jarayonida yangi, qiziqliktiruvchi metodlar qo'llanishini ta'lim beradigan o'qituvchilar uchun ham muhimdir. Bu texnologiya orqali, o'qituvchilar o'quv jarayonini talabalarning individual talablariga, qobiliyatiga va qiziqishesiga moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, "Kayzen" ped texnologiyasi tarixiy materiallarni visualizatsiya qilish, interaktiv o'rganish vositalaridan foydalanish, tushunchalarni yo'llarni ajratish va boshqalar kabi texnik vositalardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu esa talabalarning ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. F.Sh.Aqchayev. Tarix fanini oqitishda innovatsion texnologiyalar. O'quv-uslubiy qo'llanma. Jizzax-2014.8-b.
2. A.Harris, Teaching and Learning in the Effective School. Aldershot: Ashgate, 1999. -P.401.
3. I.S.Joldasov. Tarixni o'qitish metodikasi rivojlanishi tarixidan. "Science and Education" Scientific Journal. August 2020 / Volume 1 Issue 5.196-b.
4. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi: Nasaf. 2000. - 80 b.